



## QASHQADARYO VILOYATI NISHON TUMANIDA “TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH” NING 021-2023-YIL NATIJALARI

*Salimbayeva Ruxshona*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

*„Moliya fakulteti” MMT-88 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Tashabbusli budjetlashtirish — aholining tashabbuslarini hisobga olgan holda budjet mablag'larining muayyan bir qismini sarflash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlar qabul qilish hamda qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini kuzatish amaliyotidir. Ushbu maqolada 2021-2023-yillar davomida Qashqadaryo viloyati Nishon tumani tashabbusli byudjetlashtirish loyihalari doirasida ayrim tahliliy masalalar bayon qilingan. Jumladan, tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar, amalga oshirilgan loyihalar, fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'lari shakllanish manbalari shuningdek, loyihalarga bildirilgan takliflar va ovoz berish natijasida g'olib bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Tashabbusli byudjet, mablag' ajratish, shartnoma tuzish, ovoz berish, qoldiq mablaglar, erkin qoldiq mablag'lar, moderatsiya, hisobot davri, tuman byudjeti, iqtisod qilingan mablag', moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'.*

Quyudagi 1-jadvalda Qashqadaryo viloyati Nishon tumani tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori 2021-2023-yillarda yo'naltirilgan mablag'larni tahlil qildik.

**1-jadval**

**Qashqadaryo viloyati Nishon tumani tashabbusli byudjetlashtirish uchun  
yo'naltirilgan mablag'lar miqdori**

(ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	500 000,0	1 715 604,0
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”ga o'tkazilgan mablag'lar	2 326 800,0	10 814 061,0	14 032 185,0
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1 826 800,0	10 889 000,0	13 520 000,0



3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'	1 453 262,6	0	10 991 253,0
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	373 537,4	0	2 528 747,0
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag'	873 537,4	11 314 061,0	2 227 789,0

Tahlilimiz natijasida, yillar davomida tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'larning umumiy miqdori yillar davomida sezilarli darajada ortib broganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 2021-yil yakunlari bo'yicha 1 826 800,0 ming so'mni tashkil etgan, 2022-yil davomida bu ko'rsatgich deyarli 6 barobarga ortib 10 889 000,0 ming so'mni tashkil qilgan bo'sa, 2023-yilning mos davriga kelib jamoatchilik fikri asosida shakillangan mablag'larni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar o'tgan moliya yiliga nisbatan 2 631 000 ga ortib 13 520 000,0 ming so'mga yetgan.

Tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar tuman aholisi tomonidan ilgari surilgan va eng ko'p ovoz to'plash natijasida g'olib deb topilgan turli darajadagi ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish maqsadida sarflangan.

Keying o'rinda, 2021-2023-yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida tashabbusli budjetlashtirish moliyalashtirilgan tadbirlar, ularning umumiy soni va sarflangan mablag'larning umumiy qiymatini yillar kesimida ko'rishimiz mumkin.

## 2-jadval

### Qashqadaryo viloyati Nishon tumani tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag' (ming so'mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
	<b>Jami</b>	3	43	16	1 826 800,0	23 136 000,0	13 520 000



1.	Hududiy ichki yo'llar	1	22	8	486 800,0	16 701 000,0	7 725 000,0
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	-	5	3	-	1 940 000,0	2 730 000,0
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	2	-	-	200 000,0	-
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	2	1	-	150 000,0	450 000,0
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	4	-	-	1 170 000,0	-
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	-	3	1	-	100 000,0	315 000,0
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari va piyodalar yo'lakchasini ta'mirlash	-	-	1	-	-	800 000,0
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	1	2	-	980 000,0	-	-
9.	Boshqa tadbirlar	1	3	2	360 000,0	2 875 000,0	1 500 000,0

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, 2021-yilda jami 3ta loyiha moliyalashtirilgan bo'lib, hududiy ichki yo'llar, hududlarni tartibga solish va boshqa tadbirlar uchun 1tadan loyihalarga mablag'lar sarflangan. 2022-yilda esa moliyalashtirilgan loyihalarning umumiy soni 2021-yilga nisbatan 14 marta ortiq bo'lib, ularga sarflangan mablag'larning umumiy hajmi 13 barobardan ortiq. Ushbu 43ta loyihalarning ichidan eng ko'p miqdorda moliyalashtirilgan takliflar sonidan 22ta loyiha (51 % i) hududiy ichki yo'llar uchun va 5ta loyihasi (12 % i) umumta'lim maktablarini jihozlash va ta'mirlash uchun jami 39 837 000,0 ming so'm mablag'lar ajratilgan. Shuningdek, o'tgan yillar davomida amalga oshirilgan tadbirlar soni va qiymati Nishon tumanida hududiy ichki yo'llarni qurish, ta'mirlash va qayta



ta'mirlash hamda umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash bilan bog'liq bo'lgan masalalar hudud aholisi uchun eng dolzarb muammolar hisoblanganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2023-yil mobaynida bu borada amalgam oshirilgan loyihalarning umumiy soni va qiymati deyarli ikki barobarga kamayib, 11 830 000,0 ming so'mlik 16 ta loyihani tashkil qilgan. Umumiy soni va qiymati bo'yicha tumanda ikkinchi o'rinda turgan masala hududda mavjud umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash bilan bo'lgan loyihalar hisoblanib bu borada, Nishon tumanida 2023-yil mobaynida umumiy qiymati 2 730 000,0 ming so'mlik 3 (19 % i) ta loyiha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan, ovoz berish natijalariga ko'ra go'lib deb topilgan va moliyalashtirilgan. Shuni ta'kidlash joizki, 2023-yilda o'tgan yilga nisbatan amalga oshirilgan tadbirlar soni va qiymatidan kelib chiqan holda aholining dolzarb masalalari ya'ni ichki yo'llarni ta'mirlash va umumiy o'rta ta'lim maktablarni ta'mirlash bilan bog'liq masalalari qisman hal bo'lib kelyotganini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, aholi tomonidan 2023-yilda kam takliflar bildirilgan.

Navbatda, Qashqadaryo viloyati Nishon tumanda Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalarining 2021-2023 yil to'rtta choraklar kesimida ko'rishimiz mumkin.

### 3-jadval

#### Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalarining 2021-2022-2023-yil to'rtta chorak kesimida mablag'larning shakllanishi

(ming.so'mda)

<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar	0	3 684 657	9 417 000
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari	0	2 510 000	0
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	3 131 800	4 210 000	3 166 000



Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	0	2 510 000	1 968 000,0
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	2 326 800	1 700 000	1 198 000
	Iqtisod qilingan mablag'lar	0	0	1325,004
	Respublika byutjetidan ajratilgan mablag'lar (PQ-5250 ga asosan)	0	0	0
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		<b>2 326 800</b>	<b>10 814 061</b>	<b>12 596 537</b>

Yuqorida berilgan jadval so`ngi yillarda Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg`armasiga ajratilgan mablag`larning shakllanishi manbalarini yillar kesimida ko`rishimiz mumkin. Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 % qismi miqdorida ajratilgan mabag'i 4 ta choraklar yakuni bo`yicha jami 2022-yilda 3 684 657 ming so`m ni tashkil etgan. 2023-yilda esa bu ko`rsatkich 9 417 000 ming so`mga yetib o`tgan yilgiga nisbatan 5mlrd 732mln 343ming so`mga yetgan.

2. Erkin qoldiq mablag'lari 2022-yilda 2 510 000,0 mln so`mni bo`lib 2023-yilda 1 968 000,0 ming so`mni tashkil etgan.

3. Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lari 4ta choraklar yakuni bo`yicha jami 2021-yilda 3 131 800,0 so`m bo`lgan. 2022-yil esa 4 210 000,0 so`m bo`lgan bu o`tgan yilgiga nisbatan 681mln 366m1 078 200 ming so`mga ko`p. 2023-yilda 3 166 000,0 ming so`m bo`lib, o`tgaaan 2 yilga nisbatan pasayganini ko`rishimiz mumkin

4. Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan bajarilgan qismi 2021-yilda 2 326 800 so`m. 2022-yilda 1 700 000,0 so`m bu o`tgan yilgiga nibatan 626 800,0 ming so`m kam. 2023-yilda esa 1 198 000,0 so`m bo`lib, o`ygan yilga nisbatan 502 000,0 ming so`mga yana kamayganini ko`rishimiz mumkin. Bundan ko`rinib turibdiki, daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozi o`tgan 3 yil mobaynida kamaytirilib bajarilgan.



Yuqoridagi raqamlardan ko`rinib turibdiki Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi tomonidan tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar uchun yetarlicha mablag`lar ajratilgan ammo, g`olib loyihalar amalga oshirilgan hatto oxirgi yillarda iqtisod qilingan mablag`lar mavjud emas.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalarni, to'plangan ovozlar soni va moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag`larni 2021-2023 yillar davomidagi tahlilini ko`rib chiqamiz.

#### 4-jadval

### Qashqadaryo viloyati Nishon tumani tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Shu jumladan			Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori(ming.so'm)
			onlayn ovozlar	oflayn ovozlar	SMS orqali ovozlar	
<b>2021-yilda</b>						
	Tuman markaziy istirohat bog'ini tamirlash va obodonlashtirish	1821	836	-	985	980 000
1.	Tumandagi "Kimyogar" MFY Hududiy ichki yo'llari	1438	30	-	1408	486 800
2.	Tumandagi "Orzubo'stoni" MFYga Guzar binosi qurish	324	53	-	271	360 000
<b>2022-yil da</b>						
1.	Nuriston posyolkasi kimyogar mahallasida asfalt yonida uzoq yillar davomida yo'lak yo'qligi sababli velosiped haydayotgan shaxslar asfaltni o'zida yurishga majbur bo'lmoqda.Xavfsizlikni saqlashimiz uchun va yashayotgan yosh qatlam ya'ni yoshlarni va umuman aholini sog'lomlashtirishni qo'llab-quvvatlash uchun 1 km uzunlikda veloyolak qurish va abgor holatga kelib qolgan 500m kimyogar	1589	18	0	1571	768 000



	mahallasi ichki yo'lini asfalt qilish uchun amaliy yordam					
2.	Umud bunyodkor MFY ichki yo'llarini ta'mirlash	1559	22	0	1537	91 929
3.	Yoshlar diyori MFY 2019 yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar ijara asosida faoliyat yuritib kelmoqda.MFY aholisi MFY ma'muriyatidan uzoq masofada joylashgan va MFY hududida bino qurish	964	7	0	957	290 000
4.	Nishon tumani MFY 20-maktab isitish tizimi 50% foydalanishga yaroqli.	943	48	0	895	665 420
5.	Ko'ksoy MFY binosi qurish MFY mavjud emas, maktab binosida ijara asosida faoliyat ko'rsatadi	942	7	0	935	308 000
6.	Nishon tumani istirohat bog'ini ta'mirlash va bezash	876	194	0	682	970 000
7.	Nishon tumani Guliston MFYda joylashgan 9-maktabgacha ta'lim tashkiloti bugunda 240 nafar tarbiyalanuvchilar tarbiyalanib kelmoqda,ushbu MTT kirish darvozasi, tashqi devorlari, o'yin maydonchalari, tom qismi, eshik romlari,oshxona, gurux honalari va elektr tizimi ta'mirga muhtoj	875	124	0	751	200 000
8.	Nishon tumani Paxtazor MFY ichki yo'llari, simyog'och va kanalizatsiya tarmoqlarini ta'mirlash	624	25	0	599	500 000
9.	Nishon MFY joylashgan Nishon oilaviy poliklinikanini joriy tamirlash	578	3	0	578	150 000
10.	Nishon tumani markaziy ko'chalarini asfalt qilish	526	483	0	43	650 000
11.	Boshqa loyihalar	9 504	26	0	434	20 712 349
<b>2023-yilda</b>						





1.	A.Qodiriy MFY ichki ko'chalarining asphalt qoplamasi bilan qoplash	3260	0	0	3260	1 140 000
2.	Navro'z QFY Yangi Hayot va Yangi Obod ko'chalaridagi 1500m asphalt yo'lga asphalt qoplamasi yotqizish	3240	0	0	3240	1 110 000
3.	35-Maktab ko'chasidan boshlab Nuriston shaharchasi bozoriga boradigan G'.G'ulom ko'chasi va O'zbekiston ko'chasi bilan yo'llarni asfalt yotqizish.	2201	0	0	2201	855 000
4.	"Jalajin" MFY hududidagi 10ta ichki ko'chalarni asfalt qilish	2201	0	0	2201	400 000
5.	16-maktabni ta'mirlash	2009	0	0	2009	1 150 000
6.	"Ibn Sino" MFYda joylashgan 6-maktab binosini joriy ta'mirlash	1872	0	0	1872	980 000
7.	3-maktabni joriy ta'mirlash	1785	0	0	1785	600 000
8.	"Nuriston" MFY hududidagi ko'p qavatli uylarni ichki yo'llarini 3km qismini temir beton bilan qoplash	1671	0	0	1671	600 000
9.	"Oq-oltin" MFYda joylashgan 30-Oilaviy Poliklinikasini joriy ta'mirlash km oqova suvini olib kelish	1665	0	0	1665	315 000
10.	Nishon markazidagi "Istiqlol" istirohat bog'I hududida qurilgan sharshara yonida yangi sharshara majmuasi qurish	1638	0	0	1638	700 000
11.	Boshqa loyihalar	17 320	0	0	17 320	13 970 000

4-jadval orqali 2021-yil Nishon tumanida g'olib deb topilgan loyihalarni to'plagan ovozlar soni bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, eng ko'p ovozni „Tuman markaziy istirohat bog'ini tamirlash va obodonlashtirish”ga yig'ilgan bunda onlayn ovozlar 836ta, o'flayin ovozlar yig'ilmagan, SMS orqali yig'ilgan ovozlar 985ta, jami ovozlar 1821 ta. Eng kam ovoz topilgan loyiha „Tumandagi “Orzubo'stoni” MFYga Guzar binosi qurish”ga jami ovozlar soni 324 tani tashkil qilgan.





2022-yilga kelib umumiy yil yakuni bo'yicha 431ta loyiha qatnashgan va eng ko'p ovozni „Nuriston posyolkasi kimyogar mahallasida asfalt yonida uzoq yillar davomida yo'lak yo'qligi sababli velosiped haydayotgan shaxslar asfaltni o'zida yurishga majbur bo'lmoqda.Xavfsizlikni saqlashimiz uchun va yashayotgan yosh qatlam ya'ni yoshlarni va umuman aholini sog'lomlashtirishni qo'llab-quvvatlash uchun 1 km uzunlikda veloyolak qurish va abgor holatga kelib qolgan 500m kimyogar mahallasi ichki yo'lini asphalt qilish uchun amaliy yordam" yig'gan yani jami ovozlar soni 1589 ta bu ovozlarning hammasi 18tasi onlain ovozlar, qolgan 1571 tasi esa SMS orqali yig'ilgan ovozlar hisoblanadi. Ajratilgan mablag' 768 000 ming so'm.

Eng kam ovoz to'plagan loyiha „ Nutchi MFY shikor ko'chasini ta'mirlash,20-35 maktabga boradigan yo'llarni 800m asfalt yotkizish" loyihasi bo'lib,ushbu loyiha qoniqarsiz talabda ovoz to'plagan. Ovozlar soni 458 tani tashkil qilgan. Ajratigan mablag' 100 000 ming so'm.

2023-yilning eng yuqori ovoz bilan “ A.Qodiriy MFY ichki ko'chalarining asphalt qoplamasi bilan qoplash” nomli loyiha jami ovozlar soni 3260ta, ajratigan mablag' 1 140 000,0 ming so'mni tashkil qilgan. “Nishon tumani “Oq oltin” MFYda joylashgan 30-Oilaviy poliklinikasini joriy ta'mirlash” loyihasi ushbu mavsumda 1626ta eng kam ovozga ega bo'lgan. Shuni ta'kidlash joizki, 2023-yil 16ta loyiha qatnashgan bo'lib, yuqoridagi TOP 10lik loyihalardan boshqa loyihalarni tahlil qilaydigan bo'lsak 17 320 ovoz bilan 13 970 000 ming.so'm miqdordagi mablag' ajratilgan.

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli budjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun mahalliy budjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sariflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Молия. - O 'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018



4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Хайдаров НХ "Молия: умумдавлат молияси". Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиклигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Файбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Vaktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023



22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Ikramjon Masharipov. Yangi O'zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish jarayonlari. Общество и инновации (Vol.2022)